



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Axatova Bahora Matlabovna**

*Samarqand shahri 46- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori*

### O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI HAMDA DIDAKTIK O'YINLI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Annotasiya:** Bugungi fan va texnika rivojlangan davrda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda didaktik va interfaol metodlardan foydalanish yoshlarda fanga bo'lgan qiziqishni hamda samaradorlikni oshiradi.

**Аннотация:** В наш век науки и технологий использование дидактических и интерактивных методов в преподавании социальных и гуманитарных наук повышает интерес к науке и повышает ее эффективность у молодежи.

**Annotation:** In today's age of science and technology, the use of didactic and interactive methods in the teaching of social sciences and humanities increases the interest and effectiveness of science in young people.

**Kalit so'zlar:** Metod, interfaol, metodologiya, tizim, metod, ta'lim

**Ключевые слова:** метод, интерактив, методология, система, метод, обучение.

**Keywords:** Method, interactive, methodology, system, method, education

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda, umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish,



o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan. Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, o'qituvchi tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqargan. Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsni tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materiyali o'zlashtirishga sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiyasi butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Ta'lim va tarbiyaning o'rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta'lim, tarbiyaning biri juz'idir. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o'z-o'zidan ta'limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma'nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolotlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba qo'llangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish kerak. Ana shunday texnologiyalardan biri didaktik o'yinli texnologiyalar ham ta'limda o'quvchilarning o'zlashtirish sifat samaradorligi uchun xizmat qilmoqda.

Ta'lim tizimida, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Yoshlarni mustaqil ishlashga va tafakkur yuritishga o'rgatish davr talabiga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda barcha muassasalarda ta'lim jarayoni interfaol usullardan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Har bir fanning o'ziga xos xususiyatlari o'quvchilar tomonidan darslarda samarali o'zlashtirilishi uchun ham albatta ta'limning zamonaviy interaktiv metodlariga murojaat qilish davr talabidir. Ta'lim modellari passiv, faol, interfaol turlarga bo'linadi. Passiv ta'lim bu oddiy usuldir. O'qituvchi so'zlaydi, tushuntiradi, ma'ruza qiladi, bayon etadi. O'quvchi passiv ishtirokchi sanaladi. U darsni o'z qobiliyati darajasida o'zlashtiradi. O'quvchining bilimi ham bilish, tushunish, o'zlashtirish darajasida qoladi. Faol usul – o'qituvchi ta'lim mazmunini didaktik tarqatma materiallar yordamida tushuntiradi, o'quvchilar bilan fikr almashinadi. Ta'lim mazmuni birmuncha o'zlashtiriladi. Interfaol metodda esa ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantiriladi. Shunday qilib interfaol metodlar ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro



hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir talabalarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Interfaol metodlar sirasiga grafikli organayzerlardan foydalanish ham kiradi. Grafik organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasidir.

Bugungi kunda yoshlarni o'qitishda amaliy darslarda qo'llanib kelinayotgan turli xil didaktik va interfaol metodlar tinglovchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар / Маърузалар матни. Туз.: А.Х.Қосимов, Ф.А.Ҳоликова. – Тошкент: ТАТУ, 2004. – Б.23.
2. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари.
3. О.У. Hasanboyeva, М.Х. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova. 2-nashri). Т.: «ILM ZIYO», 2011. — 184 б.